

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



ARXEOLOGIYA
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi: 220000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)

Ta'lim yo'nalishi: 60220300 – Tarix


Toshkent–2025

“Sharq sivilizatsiyasi va falsafa”
fakulteti dekani:




M.M. Askarov

“Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi”
kafedrasi mudiri:



Sh.I. Ikromov

ARM boshlig'i



Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi ARX1104		O'quv yili 2025/2026	Semestr 1	ECTS — Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Arxeologiya	48	72	120	
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga arxeologiya fanining nazariy va amaliy asoslari, arxeologik davrlashtirishning asosiy tamoyillari, arxeologiya fani tarixi, rivojlanish bosqichlari, arxeologik kashfiyotlar tarixi, insoniyatning paydo bo'lishi va tarqalishi, arxeologik yodgorliklar, etno-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, moddiy madaniyat xususiyatlarini o'rgatish hamda ularda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – dunyo mamlakatlarining tosh davridan antik davriga qadar bo'lgan davr jarayonlari, xususan, insoniyatning paydo bo'lishi va tarqalishi, tosh asri madaniyatlari va asosiy arxeologik yodgorliklari, eneolit-bronza davrlari etno-madaniy jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ilk temir va antik davr madaniyati xususiyatlari, ilk shahar shaklidagi manzilgohlarning tuzilishi, me'moriy va qurilish xususiyatlari, ishlab chiqarish shakllari va moddiy madaniyati kabi masalalarni ochib berish.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Moskva davlat universiteti (ARWU 115) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://www.hist.msu.ru/departments/8827/study/profiles/55043/#courses</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Arxeologiya faniga kirish</p> <p>Arxeologiya atamasi. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi. Fanning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish, arxeologiyani idrok etish madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berish, o'tmish ajdodlar hayoti bilan uzilmas ma'naviy aloqalarni anglab yetish yo'llarini ko'rsatish. Arxeologiya fani to'g'risidagi dastlabki ilmiy bilimlarning shakllanishi. Moddiy manbalar, yozma manbalar, arxeologik</p>				

yodgorliklar, arxeologik tadqiqot usullari, madaniy qatlam. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya.

2-mavzu. Arxeologik tadqiqot turlari va zamonaviy usullari

Arxeologik tadqiqotlar tarixi. Arxeologik qidiruv. Arxeologik qidiruv usullari: yuza, geokimyoviy, geofizik, aerofoto, kosmik va b. Qazishma ishlari: shurflash, stratigrafiya, chizmalar, kundalik, topilmalarni qayd qilish. Suv osti arxeologiyasi va uning muammolari. Arxeologik talqin. Arxeologik tadqiqot mavzulari.

3-mavzu. Arxeologiya va yordamchi fanlar

Arxeologiya va uning yordamchi fanlari. Arxeologiya fanining ilmiy muammolari. Arxeologiya fanida tarixiy fanlarning o'рни. Arxeologiya va numizmatika. Arxeologiya va antropologiya. Arxeologiya va tarixiy etnologiya. Arxeologiya va etnologiya. Arxeologiya va geraldika. Arxeologiya va dinlar tarixi. Arxeologiya va harbiy san'at tarixi. Arxeologiya va epigrafika. Arxeologiya va toponimika. Arxeologiya va aniq fanlar. Kompyuter texnologiyalari va arxeologiya. Arxeologiya va tabiiy fanlar.

4-mavzu. Tosh davrining umumiy tavsifi

Tosh davrining xronologik chegaralari va hozirgi vaqtdagi davrlashtirilishi. Absolyut va nisbiy yosh, sanalashtirish usullari. Toshdan yasalgan mehnat qurollari tarixiy manba sifatida. Tosh qurollarining ilk topilishi, ularni o'rganishning boshlanishi. Tarixshunoslik. Inson paydo bo'lishi haqidagi nazariyalar. Antropogenez va insoniyatning tarqalishi. Tosh davri yodgorliklarini o'rganishning metodologik asosi – tizimli yondashuv.

5-mavzu. Paleolit

Ilk va o'rta paleolit. Olduvay. Ushbu davrning asosiy yodgorliklari, madaniy qatlamlar va inventar xarakterlari. Antropologik qoldiqlar. **Ashel.** Asosiy yodgorliklar, toshdan yasalgan buyumlarning yetakchi shakllari, qurilish inshootlari qoldiqlari. Toshni parchalash texnikasi. **Mustye.** Tarqalish hududi, turg'un joylarning geologik yoshi. Olovdan foydalanish, uy-joy qurilishi tarqalishi, ilk dafn marosimlari va san'atning boshlanishi. Mustye davrida tosh buyumlarini tayyorlash texnikasi. Asboblarning yetakchi shakllari. Mahalliy variantlar va arxeologik madaniyatlar. Mustyedan yuqori paleolitga o'tish muammosi. **Yuqori paleolit.** Davrning geologik yoshi va paleogeografik shart-sharoitlar tavsifi. **Homo sapiens** antropologik topilmalari. Tosh xomashyosi va suyakni qayta ishlashda yangi texnologik usullar, ishlab chiqarish faoliyatining ixtisoslashuvi, asboblarning yangi turlari. Yuqori paleolitda "arxeologik madaniyat" tushunchasi. Madaniyatlarning rivojlanish muammolari, mahalliy variantlar va madaniy hududlar. Madaniy viloyatlar va yuqori paleolitning asosiy arxeologik madaniyatlari. Yuqori paleolitda tabiiy muhit va ijtimoiy evolyusiya. Manzilgohlar va turar joylar, ularning turlari, xo'jalik xarakteri, mavsumiylik va manzilgohlarning uzoq muddatli mavjudligi. Diniy tasavvurlarning rivojlanishi.

Dafn marosimlari, tasviriy san'at.

6-mavzu. Mezolit

Atamalar mazmuni va ahamiyati: «mezolit», «epipaleolit», «golotsen paleoliti», «keramikasiz neolit». Golotsen. Muzlikdan keyingi isish. O'simlik va hayvonot dunyosidagi o'zgarishlar; Yevrosiyo hududida zamonaviy landshaft-iqlimiy zonalarining shakllanishi. Inson va uning xo'jaligining yangi yashash sharoitlariga moslashuvi. Kechki mezolit va yangi xo'jalik shakllariga o'tish muammosi, turli mintaqalarda iqtisodiy rivojlanishning notekisligi yuzaga kelishi. Madaniy viloyatlar va arxeologik madaniyatlar: G'arbiy va Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Sibir. Qishloq va manzilgoh turlari, xo'jalik faoliyati, moddiy madaniyatning asosiy xususiyatlari. Mezolit san'ati. Tasviriy ijodning yangi jihatlar: qoyatosh suratlar, mayda haykaltaroshlik, naqsh bezaklari.

7-mavzu. Neolit

«Neolit» atamasi, uning kelib chiqishi. Neolit davri jamiyatlarining rivojlanishida ekologik va ijtimoiy omillar. Neolitning xronologik chegaralari. «Neolit inqilobi» atamasi. Neolit davrida mehnat qurollari ishlab chiqarish sohasidagi o'ziga xos xususiyatlar. Kulolchilikning paydo bo'lishi, to'qimachilikning tarqalishi. Manzilgoh turlari, xo'jalik shakllari. Old Osiyo va Bolqon neolit madaniyatlarining umumiy tavsifi. Qardosh madaniyat guruhlar, madaniy hududlar va madaniy zonalar: Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa, Ural, Sibir va Uzoq Sharq neolit davri. Markaziy Osiyo neoliti. Jeytun madaniyati. Sharqiy Kaspiybo'yi yodgorliklari. Kaltaminor madaniyati. Hisor madaniyati. Kavkaz va Shimoliy Qora dengizbo'yi neoliti. Xronologiyasi, tarqalish hududi, asosiy yodgorliklari, manzilgoh turlari, tosh qurollarining xususiyatlari, keramika. Sharqiy Yevropaning janubiy dasht hududlari madaniyatlari. Dafn yodgorliklari. Sharqiy Yevropaning o'rmon zonasi neoliti. Dastlabki neolit madaniyatlari. Chuqurcha-g'adir-budur naqshli keramika doirasidagi madaniyatlar. Volga-Kama va Ural oldi neoliti. Ural, Sibir va Uzoq Sharq neolit yodgorliklari. Yevrosiyo neolit dafn yodgorliklari. Dafn marosimida yuz bergan o'zgarishlar, ma'lum vaqt va makonga oid hududlar uchun marosimlarning standartlashuvi.

8-mavzu. Eneolit

Eneolit davri tavsifi. Dastlabki metall-misga ishlov berishning boshlanishi insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining omili sifatida. Mesopotamiyada shahar davlatlarning shakllanishi. O'rta Osiyoning eneolit davri madaniyatlari (Anov-Nomozgoh, Sarazm). Qurilish va memorchilik. Hunarmandchilik taraqqiyoti. Haykalchalar. Manzilgohlar. Dehqonchilik va chorvachilik. Kulolchilik. Tosh qurollar. Metallga ishlov berishning rivojlanishi. Tasviriy san'at.

9-mavzu. Bronza davri

Bronza davri tavsifi. Bronza davri tarixiy-madaniy jarayonlari. Mesopatamiyada shahar-davlatlar taraqqiyoti va ularning xususiyati. Kritdagi mil. av. III-II ming yilliklarga oid Minoy va Miken madaniyatlari. Bronza davri yodgorliklari va ularning tavsifi. O'rta Osiyoning bronza davri madaniy markazlari (Kopetdog'oldi, Murg'ob, Surxon va o'rta Zarafshon vohalari), protoshahar tipidagi manzilgohlari (Oltintepa, Sarazm) Shimoliy Afg'onistonda Dashli madaniyati. Hindiston bronza davrida. Ixtisoslashgan ishlab chiqarish. Tasviriy san'at. Yozuv yodgorliklari. Xo'jalik va moddiy madaniyat. Metallarga ishlov berish taraqqiyoti. Ijtimoiy tabaqalanish va davlatchilik masalalari.

10-mavzu. Ilk temir davri arxeologiyasi

Ilk temir davri tavsifi. Temirning kashf etilishi masalasi. Ilk temir buyumlari va ularning tarqalishi. Urartu madaniyati. Temirchilik ustaxonalari. Kimmeriyalar va ularning harbiy faoliyati. Qabrlar, qurollar, sopol buyumlar. Skiflar madaniyati. Skiflarning turmush tarzi, shaharlari, chorvachilik xo'jaligi. Qo'rg'onlar va katakombalar. Sarmatlar, ularning ijtimoiy tuzumi, turar joylari. Sarmat hukmdorlarining qabrlari va qo'rg'onlari. Sopol buyumlar va harbiy qurollar. Sarmatlarning tarqalib ketishi sabablari. Xetlar. Rossiya hududidagi ilk temir davri yodgorliklari. O'rta Osiyo hududidagi so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining rivojlanishi.

11-mavzu. Antik davr arxeologiyasi

Antik davr haqida umumiy ma'lumot. Antik davr xususiyatlari. Shaharlarning paydo bo'lishi. Davlatchilikning asosiy omillari. Ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Haykaltaroshlik, amaliy va tasviriy san'at. Osiyo, Afrika va Yevropaning antik davr yodgorliklari. Me'morchilik. Antik davr madaniyati.

12-mavzu. O'rta asrlar davri arxeologiyasi

Ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot. Ibadatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligi. San'atning yuksalishi. Hunarmandchilik va to'qimachilikning rivojlanishi. Buyuk ipak yo'li. O'rta Osiyodagi ilk o'rta asrlar davriga oid arxeologik yodgorliklar. Osiyo, Afrika va Yevropadagi ilk o'rta asrlar davriga oid arxeologik yodgorliklar. Rivojlangan o'rta asrlar davri haqida umumiy ma'lumot. Tasviriy san'at. Markaziy Osiyo shaharlari. Sug'orish inshootlari. Kumush tangalar.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Arxeologiya" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va

tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo‘shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

“Arxeologiya” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Arxeologiya fanini o‘rganishning ahamiyati.
2. Arxeologik tadqiqot turlari va zamonaviy usullari.
3. Arxeologiya va yordamchi fanlar.
4. Odam evolyutsiyasi.
5. Paleolit davri xo‘jaligi va moddiy madaniyati.
6. Mezolit davri xo‘jaligi va moddiy madaniyati.
7. Neolit davri xo‘jaligi va moddiy madaniyati.
8. Eneolit davri tarixiy-madaniy jarayonlari.
9. Bronza davri tarixiy-madaniy jarayonlari.
10. Ilk temir davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari.
11. Antik davr ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari.
12. O‘rta asrlar xo‘jaligi va moddiy madaniyati.

IV. MUSTAQIL TA‘LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o‘tilgan mavzuni chuqur o‘rganishlari uchun darslik, o‘quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo‘yicha mustaqil ta‘lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko‘chirmakashlik)ga yo‘l qo‘ymaslik;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta‘lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta‘limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma‘lumot (esse) tayyorlash;
- aniq mavzu bo‘yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta‘rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma‘ruza tayyorlash;

“Arxeologiya” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi

	<p>tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekistonda arxeologiya fanining rivojlanishi. 2. Arxeologik tadqiqot turlari va sanalashtirish muammolari. 3. Zamonaviy odamning paydo bo'lishi va rivojlanishi. 4. Olduvay davri madaniyati. 5. Ashel davri madaniyati. 6. Mustye davri madaniyati. 7. Markaziy Osiyoning mezolit davri yodgorliklari. 8. Markaziy Osiyoning neolit davri yodgorliklari. 9. Markaziy Osiyoning eneolit davri yodgorliklari. 10. Markaziy Osiyoning bronza davri yodgorliklari. 11. Mohenjo-Doro va Xarappa madaniyatlari. 12. Krit-Miken madaniyati. <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • arxeologiya fanining maqsad va vazifalari, dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy va ma'naviy madaniyati, xo'jalik xususiyatlari masalalari va ularning taraqqiyot bosqichlari, ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; • dunyo mamlakatlari arxeologik topilmalari, arxeologik manbalar tavsiflari, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi; • talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganishi, internet ma'lumotlarini, dunyo arxeologiyasiga oid manbalarni mustaqil tadqiq va tahlil qilish hamda muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>

5.

VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya (darslik).-T.: 2023. – 190 b.
2. Abduqayumov A.R. Arxeologiya: Tosh davri (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2023. – 152 b.
3. Qodirov Z.M. Arxeologiya (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2023. – 152 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023
6. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.
7. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
8. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
9. Michael Chazan. World prehistory and archaeology: pathways through time - Third Canadian edition. Pearson Canada Inc., 2015.
10. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-T.: 2011.
11. Ibragimov R. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-T.: 2022.
12. Мартынов А. И./ Археология: учебник для бакалавров. - 7-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2013. - 460 с.
13. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси: Олий ўқув юртлари талабалари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – 160 б.
14. Carl Knappett. An archaeology of interaction. – Oxford: Oxford university press, 2011. – P. 251.
15. Мартынов А.И., Шер Я.А. Методы археологического исследования. – М.: 2002.
16. Арциховский А.В. Археология асослари. - Т.: Ўқитувчи, 1970. – 295 б.
17. Щапова Ю.Л. Археологическая эпоха: хронология, периодизация, теория, модель. – М.: КомКнига, 2005. 192 с.
18. Martin Hall and Stephen W. Silliman. Historical archaeology - Blackwell Publishing Ltd, 2006. – P. 360.
19. Miriam T. Stark. Archaeology of Asia - Blackwell Publishing Ltd, 2006. – P. 381.

Scopusdan maqolalar

20. Gabriel Gómez, Igor Gutiérrez-Zugasti, Asier García-Escárzaga, Juan Manuel Muñoz, Jara Pascual-Revilla & Francisco Ruiz. Where the Shells Come From? A New Methodology for Establishing Collection Areas Applied to Upper Palaeolithic and Mesolithic Shell Middens From Northern Iberia. Journal of

	<p>Archaeological Method and Theory, Volume 32, article number 54, (2025). https://doi.org/10.1007/s10816-025-09723-7</p> <p>21. Kate Franklin, Archaeology of the Silk Road: Challenges of Scale and Storytelling. Journal of Archaeological Research, Volume 32 pages 263-308, (2024). https://doi.org/10.1007/s10814-023-09188-w</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.ziyo.net 2. http://www.history.ru 3. www.natura.com 4. www.archaeology.ru 5. www.archaeology.com
7.	<p>Fanning o'quv dasturi " Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025-yil "21" 06 dagi 13 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025- yil "28" 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul: Z.M.Qodirov – TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Sh.I.Ikromov – TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasida mudiri, PhD Urakov D.J. – O'zMU, Jahon tarixi kafedrasida mudiri, t.f.d. (turdosh OTM);</p>

Scarf